

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI TA’LIMINING O’RNI VA VAZIFALARI

*Farg'ona davlat universiteti dotsenti
(DcS) Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna
Farg'ona davlat universiteti, magistranti
Maxmudova Nazokat Qodirali qizi*

ANNOTATSIYA

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning ona tilidagi bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda asosiy poydevor hisoblanadi. Hozirgi kunda boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish zarurati dolzarb muammo sifatida e’tirof etilmoqda. Tadqiqotda pedagogik tahlil, kuzatish, taqqoslash va amaliy dars jarayonlarini tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, ta’limiy kompetensiyalarga asoslangan yondashuv asos qilib olindi. O‘rganishlar natijasida aniqlanishicha, ona tili darslarida mantiqiy fikrlash, og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish, savodxonlikni shakllantirish orqali o‘quvchilarning umumiyl tafakkuri kengayadi.

Kalit so‘zlar: Ona tili, boshlang‘ich ta’lim, savodxonlik, metodika, nutqiy rivojlanish, interaktiv yondashuv, pedagogik tahlil.

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim inson shaxsining asosiy nutqiy, tafakkuriy va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda muhim bosqich bo‘lib, bunda ona tili ta’limi yetakchi rol o‘ynaydi. Ona tili darslari o‘quvchilarning savodxonligini shakllantirish, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, til boyligini kengaytirish va mantiqiy tafakkurini o‘stirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi¹ Shu nuqtai nazardan, tadqiqot ob‘yekti sifatida boshlang‘ich sinflarda ona tili fanining mazmuni, metodik yondashuvlari va amaliy ahamiyati o‘rganiladi. So‘nggi yillarda ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish tamoyillarining joriy etilishi, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv aloqaning kuchaytirilishi bu fan doirasidagi yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo qilmoqda². Ilgari olib borilgan tadqiqotlar asosan savod o‘rgatish texnologiyalariga qaratilgan bo‘lib, ularning bir qismi darslik mazmuni yoki dars jarayonining tashkiliy tomonlarini tahlil qilish bilan cheklanadi. Hozirgi bosqichda esa til ta’limining kommunikativ, madaniy va psixolingvistik funksiyalarini chuqurroq o‘rganish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Amaldagi metodik adabiyotlarda ona tili ta’limining nazariy jihatlari yaxshi yoritilgan bo‘lsa-da, ularning amaliyotda to‘laqonli tatbiq

¹ Jo‘rayev R. **Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

² Sharipova N. Ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent: Fan, 2020.

etilmasligi dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Xususan, dars jarayonida interaktiv metodlardan yetarli darajada foydalanilmasligi, ko‘plab o‘quvchilarning nutqiy faolligining sustligi, muloqotda qiynalishi kuzatilmoqda. Mavjud bo‘lgan an’anaviy yondashuvlar, ya’ni diktant, matn o‘qish, gap tuzish singari uslublar, ko‘p hollarda bolalarning ijodiy fikrlashini rag‘batlantirmaydi. Shu bilan birga, ayrim qarshi fikrlar ona tili fanini faqat grammatik bilimlar majmui sifatida talqin etadi. Bu esa zamonaviy ta’lim konsepsiyalariiga mos emas. An’anaviy dars modellarida o‘quvchining faolligi emas, balki o‘qituvchining yetakchiligi markazda turadi³.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limiga oid adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar asosan savod o‘rgatish, grammatik qoidalarni singdirish, o‘quvchilarning til boyligini oshirish hamda muloqot kompetensiylarini shakllantirish kabi masalalarga qaratilgan. Jumladan, R. Jo‘rayevning “Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi” nomli asarida o‘qitish texnologiyalari, bosqichma-bosqich metodik yondashuvlar, dars jarayonining tarkibiy qismlari keng yoritilgan. Ushbu manbada ta’limning nazariy asoslari bilan birga amaliy tavsiyalar ham keltirilgan. N. Sharipova o‘zining “Ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv” nomli tadqiqotida til ta’limini shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish konsepsiysi asosida tashkil etish g‘oyasini ilgari suradi.⁴ Muallifning fikricha, o‘quvchilar faqat grammatik bilim emas, balki hayotiy muloqotda faol bo‘lishi, fikrini to‘g‘ri ifodalashi zarur. D. Xudoyberdiyeva esa ona tili darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning samaradorligi haqida fikr yuritadi⁵. U o‘quvchilarning tafakkur darajasini oshirish, ijodiy fikrlashini shakllantirishda loyihalash, rolli o‘yin, klaster, insert kabi texnologiyalarning o‘rnini alohida ta’kidlaydi. Biroq, mavjud adabiyotlarning ayrimlarida faqat metodik tavsiyalar berilgan bo‘lib, ularning empirik sinovlari yetarli darajada asoslanmagan. Shuningdek, ko‘plab tadqiqotlar individual yondashuv va o‘quvchilarning nutqiy faolligini baholash mezonlarini to‘liq ochib bera olmaydi. Bu esa mavzuga oid ilmiy bo‘shliqlar mavjudligini ko‘rsatadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqot jarayonida olib borilgan tahlillar va tajriba-eksperimental ishlar boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limi jarayonining zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan boyitilishi zarur ekanligini ko‘rsatdi. Kuzatishlar va so‘rovnomalar asosida aniqlanishicha, an’anaviy yondashuvlar bilan cheklangan darslarda o‘quvchilarning nutq faolligi va yozma savodxonligi past darajada bo‘lgan, interaktiv va kommunikativ metodlar asosida tashkil etilgan darslarda esa bu ko‘rsatkichlar ancha yuqorilagan. Tajriba sinfda qo‘llanilgan metodlardan biri sifatida “Klaster” va “INSERT” texnologiyalari o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, izchil nutq qurish va mustaqil

³ Niyozova S. Ta’lim texnologiyalari va ularning samaradorligi. – Toshkent: Innovatsiya, 2019.

⁴ Sharipova N. (2020). Ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv. Toshkent: Fan

⁵ Xudoyberdiyeva D. (2022). Ona tili darslarida innovatsion metodikalar. Andijon.

xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirganligi aniqlandi. Bu holat D. Xudoyberdiyevaning fikrlari bilan hamohang: "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy faollikni oshirish uchun o'zaro muloqotga asoslangan metodlar ko'proq natija beradi" (Xudoyberdiyeva D., 2022, 91-bet). Eksperimental guruhda darslar davomida o'quvchilarning og'zaki nutqida grammatik xatolar kamayib, ularning gap tuzish qobiliyatlari 25 foizga yaxshilangan. Yozma ish turlarida esa aniq fikr bildiruvchi iboralar va mantiqiy bog'liqliklar soni oshgan. Bu natijalar Yusupova va G'ulomov (2019) tomonidan ishlab chiqilgan baholash indikatorlari asosida tekshirildi. Muhokama jarayonida shuni ta'kidlash joizki, ona tili fanining boshlang'ich ta'lim bosqichidagi o'rni nafaqat til qoidalarini o'rgatishda, balki shaxsning ma'naviy shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. R. Jo'rayev bu haqda shunday deydi: "Ona tili darslari orqali bolaning ichki dunyosi, ifoda madaniyati va mulohaza qilish qobiliyati shakllanadi" (Jo'rayev R., 2017, 64-bet).

Xulosa

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limining sifatli tashkil etilishi o'quvchilarning til va nutq faoliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi omildir. An'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali bolalarning mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma nutqni izchil ifoda etish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Ayniqsa, interaktiv metodlar, matnga asoslangan ishlov, klaster va muloqot texnikalari orqali ona tili darslarini jonlantirish natijadorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu munosabat bilan quyidagi takliflar ilgari suriladi: Ona tili ta'limida innovatsion yondashuvlarni keng qo'llash, o'qituvchilarning metodik salohiyatini oshirish, darslik va o'quv qo'llanmalarni zamonaviy didaktik tamoyillar asosida yangilash, ona tili fanining tarbiyaviy imkoniyatlaridan to'liq foydalanish, ya'ni ona tili orqali milliy qadriyatlar, odob-axloq, estetik did va nutq madaniyatini shakllantirish. Ushbu takliflar amalda qo'llansa, boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limining sifati sezilarli darajada oshadi, bolalarning tilga bo'lgan munosabati mustahkamlanadi va ularning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatga erishishlari uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. Mother Tongue-Based Multilingual Education: Lessons Learned from a Decade of Research and Practice. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 112 p.
2. Xudoyberdiyeva D. Ona tili darslarida muloqot madaniyatini shakllantirish. – Toshkent: O'qituvchi, 2022. – 180 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiysi. Ona tili fanidan boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti. – Toshkent: 2022. – 48 b.
4. Sharipova N. Nutq faoliyatini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni. // "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" jurnali, 2020, №3. – B. 65–72.

5. Karimova Z. Zamonaviy dars va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Innovatsiya, 2020. – 156 b.
6. Azizzxo‘jayev A.A. Pedagogika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2020. – 432 b.
7. Yusupova N., G‘ulomov A. Boshlang‘ich ta’limda til va nutqni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2019. – 196 b.
8. Tursunova M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida savodxonlikni shakllantirish. – Namangan: Davr press, 2018. – 130 b.
9. Jo‘rayev R. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 224 b.